

KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZELOGIZMLARNING SINONIMLIK VA ANTONIMLIK MUNOSABATI

D.U.Baxranova, SamDChTI Koreys filologiyasi
kafedrası katta o'qituvchisi

Sinonimlik hodisasi frazeologizmlar uchun ham harakterli hisoblanadi. Lug'aviy birlik sifatida frazeologizmlar so'zlar bilan ham sinonimlik munosabatda bo'la oladi. Quyida koreys tili somatik frazeologizmlari o'trasidagi "frazeologizm=frazeologizm" hodisasidan misollar keltiramiz.

귀가 가렵다=귀가 간지럽다 - kimdir men haqimda gapirayotganga o'xshaydi.

귀가 따갑다=귀가 아프다 -bir necha marta eshitgandan keyin eshitishni xohlamaslik.

눈에 거슬리다=눈에 걸리다 - odam o'zini noxush his qilishi.

귀가 번쩍 뜨이다=귀가 번쩍하다 - eshitilayotgan narsaning quloqqa yoqishi.

눈에 들다=마음에 맞다- ko'ngliga yoqmoq.

예: 그 남자가 마음에 맞아서 결혼했다.

U Bola ko'ngliga yoqqanligi uchun turmush qurdi.

머리가 굵다=머리가 크다=머리에 서리가 앳다 – ulg'aymoq, katta bo'lmoq.

예: 아기가 나이를 먹으면서 머리가 굵었다.

Bola yil sayin o'sib, ulg'ayib katta bo'ldi.

머리를 숙이다=머리를 굽히다 -kinga yoki nimagadir bo'ysunmoq.

목을 따다=목을 떼다=목을 베다=목을 자리다 -ishdan haydalmoq.

목이 날아가다=목이 달아나다 -1.o'lim bilan to'qnashmoq, 2.ishdan haydalmoq.

목이 빠지게 기다리다=눈이 빠지게(빠지도록) 기다리다 -uzoq kutmoq.

발을 씻다=발을 빼다 - biror ishdan chetga chiqmoq, yoki qo'lini yuvmoq.

입이 싸다=입이 가뻐다- og'zi bo'sh, sir saqlolmay hamma narsani tartibsiz ravishda aytmoq.

손을 내밀다=손을 벌리다 - biron narsani berishni talab qilmoq yoki qo'l uzatmoq.

손을 싸다=손이 빠르다=손을 재다 -ish boshqaruvi yoki ishlashi tez.

Shuningdek, koreys tilida shunday frazeologizmlar ham borki, ularning ma'nosi bir bo'lsa-da, biri Janubiy Koreyaga xos bo'lsa ikkinchisi esa Shimoliy Koreya uchun xos. Qo'llanish doirasi ham shu hududga xos. Quyida avvalo Shimoliy Koreyaga xos bo'lgan, keyin esa shu frazeologizmning Janubiy Koreyadagi ekvivalentini keltiramiz.

목을 내대다(내놓다)=목을 걸다 - 1. hayotini qurbon qilishga tayyor bo'lmoq

손에 쥐일 듯하다=손에 잡힐 듯하다 - juda yaqin, shuningdek, aniq ko'rinmoq yoki eshitilmoq .

입을 달아매다=입을 다물다 - gapirmasdan o'tirmoq yoki gapirayotgan gapini to'xtatmoq.

Frazeologizmlar o'rtasidagi antonimlik munosabati koreys tilida asosan bir xil so'zdan iborat bo'lgan frazeologizmlar o'rtasida bo'ladi. Quyida koreys tili somatik frazeologizmlari o'rtasidagi antonimlik munosabatidan misollar keltiramiz.

귀가 밝다=귀가 어둡다 -past ovozni ham yaxshi eshitmoq>-<qulog'i og'ir.

머리가 크다=머리에 피도 안 마르다 - Yoshi katta>-<hali yosh.

머리가 가볍다=머리가 무겁다-tetik bo'lmoq, kayfiyati yaxshi>-<kayfiyati yo'q, hech narsa anglamaslik.

발이 길다=발이 짧다 -biron narsaga nasibasi bor bo'lmoq>-<bir narsadan nasibasi uzilgan yoki kech qolmoq.

손이 뜨다=손이 빠르다, 손이 싸다, 손이 재다 -ishlashi juda sekin>-<ishlashi tez, ish boshqaruvi tez.

손이 크다=손이 작다 -qo'li uzun>-<qo'li kalta.

손에 익다=손이 서투르다 -ko'nikkan ish>-<ko'nikmagan ish.

입이 가볍다=입이 무겁다 -og'zi bo'sh>-<og'ziga mahkam.

입을 다물다=입을 떼다, 입을 열다 -gapirishni to'xtatmoq>-<gapirishni boshlamoq.

어깨가 가볍다=어깨가 무겁다-tashvishdan qutilmoq, elkasidan tog' ag'darilmoq>-<Juda tashvishli, mas'uliyati ko'p.

Keltirilgan misollardan shu ma'lum bo'ladiki, koreys tili frazeologizmlari o'rtasida antonimlik munosabati, asosan tarkibidagi somatizmi bir xil frazeologik birliklar o'rtasida bo'ladi.

Koreys tili frazeologizmlarning o'zbek tili frazeologizmlariga ham shakl, ham ma'no jihatdan ancha yaqindir. Ularni tarjima qilish jarayoniga avvalombor milliy shakli va mazmunini anglab yetmoq lozim. Har bir frazeologizmga davriy an'analar mavjud ekanligiga e'tibor berish darkor. Shuningdek, ular xalqning madaniy o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi til birligi ekanligini unutmaslik talab etiladi. Koreys tili frazeologizmlarini ekvivalent, analog va tasviriy usullar bilan tarjima qilishni bilmoq lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, koreys tili frazeologizmlari koreys tili lug'at boyligida o'ziga xos o'ringa ega. Bilamizki, fareologizmlar tilida bir mustahkam birlik sifatida, fikrni obrazli va aniq tarzda berib, voqelikning har xil tomonlarini o'zida aks ettiradi. Ular har bir tilning o'ziga xos qonuniyatlaridan va til taraqqiyotining turli davrlarida kelib chiqadi. Frazeologizmlar avloddan-avlodga og'zaki va turli ma'nbalar tomonidan o'tib kelib, koreys xalqining o'tmishi, ma'daniyati, turmush tarsi va boshqa ijtimoiy, ma'naviy hayotiy jihatlari haqida yaxlit obrazli bir tushincha berishini ta'riflar bilan izohlab, ularni keltirilgan misollarda ko'rib chiqdik.

Frazeologizmlar nutqda yaratilmay, balki tilda tayyor holda mavjudligini aytadigan bo'lsak, koreys tilini o'qitish jarayonida frazeologizmlarga alohida to'xtalib o'tish lozim. Chunki frazeologizmlar har kungi darsda o'tilgan hikoya va dialoglarda muntazam uchrab turadi, ammo ularga etarlicha e'tibor berilmaydi. Xuddi grammatik qoidalarni tushuntirgandek, ularga ham atroflicha to'xtalib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Чой Юн Хи. Проблемы сопоставления внутренних формы фразеологизмов. // Язык сознание коммуникация. Выпуск 16. Москва> Макс Пресс. 2001.
2. Чой Юн Хи. Фразеологический образ в коннотативном аспекте// Язык сознание коммуникация. Выпуск 17. Москва. Макс Пресс. 2001.
3. Eshimova, S. K. (2022). Koreys badiiy adabiyotida personifikatsiyaning ifodalanishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 356-364.
4. Базарова, Ш. Ш. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o'ziga xosligi xususida. *Международный журнал искусство слова*, 5(3).
5. Назарова, Ш. (2017). О масштабе реализации феномена транспозиции. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, 2(3 (64)), 83-87.
6. Usmonqulovna, B. D., & Aziz To'liqin o'g, A. (2023). O'zbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. *Journal of new century innovations*, 24(1), 46-49.
7. Баёнханова, И. Ф. (2022). Корейс ва ўзбек тилидаги паремиологик бирликларнинг қиёслаб ўрганиши. *Scientific progress*, 3(3), 265-269
8. Kamarova, M. (2022). Koreys va o'zbek tillarida so'z yasovchi qo'shimchalar orqali so'z yasalishi qiyosiy tadqiqotidan ta'limda foydalanish. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 34-41.
9. Байматова, М. (2022). Проблема перевода и адаптации непереводаемой терминологии (на примере английского и корейского языков). Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 190-192
10. 이기문. 새국어사전. 서울. 2004. -2150 b.
11. 표준 국어 대사전. 국립 국어 연구원. 서울. 독산 동안. 1999, 470 쪽.
12. 김정숙 외 6 명, “외국인을 위한 한국어 문법 1”. -서울:커뮤니케이션북스. 2005 B-575 쪽.